

Mavzu:Nafosat falsafasi (Estetika)

A.S.Ravshanov

Reja:

- **1. Estetika fanini o‘rganishning ahamiyati.**
- **2. Estetikaning asosiy kategoriyalari (tushunchalari).**
- **3. Estetik (ijtimoiy) munosabatlar tizimidagi muhim bo‘lgan qadriyatlar.**

Estetika fanining atamasi

“Estetika” Yunoncha “estezikos” soʻzidan olingan boʻlib, “sezish”, “xis qilish” maʼnolarini anglatadi.

**Estetika fani voqelikni estetik
mushohada etish va badiiy ijod
jarayonlarining uzviy
mutanosibligini namoyon qiladi
va ifodalaydi. Estetika — bu
nafosat olami, san’at va badiiy
ijod jarayonlari qonuniyatlarini
his-tuyg‘u, sezgi-idrok qilish
vositalari orqali o‘rganadigan va
o‘rgatadigan fandır**

**Estetika borliqni estetik
o‘zlashtirish mohiyati va
qonuniyatlari xaqidaga fan**

Nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, jozibali, ehtirosli, mo‘jizali, sehrliki, unda moddiy go‘zallik bilan ma’naviy go‘zallik uyg‘un holda chiroy ochib turadi.

Insonning estetik faolligi jarayonida tabiat va jamiyat qadriyatlari munosabatlari tizimidagi estetik xususiyatlar (go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va pastkashlik, fojialilik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon bo‘ladi.

Estetikaning istiqbolga mo‘ljallanganligi shu bilan izohlanadiki, u voqelikni nafosat nuqtai nazaridan baholashda, badiiy mezon o‘lchovlarini ilmiy jihatdan ishlab chikib, amaliy faoliyatga tatbiq etishda o‘z ifodasini topadi.

GO‘ZALLIK

ULUG‘VORLIK

**ESTETIKA-
NING
ASOSIY
KATEGO-
RIYALARI**

KULGULILIK

FOJIAVIYLIK

ESTETIK KATEGORIYALAR MAZMUNI

Go‘zallik - estetika tushunchasi. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg‘ulari hosil qilishga qodir bo‘lgan xususiyatlarini ifodalaydi. Xunuklikning aksi.


Barcha narsalarning mezon-o'lchovi insondir. Sharq Uyg'onish davri mutafakkiri Farobiy fikricha" Go'zallik insoning jismoniy, ma'naviy va ahloqiy chiroyning ifodasidir". Insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa fazilatli, o'zi dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir.

Go'zallik yaratuvchi ijodkorlarning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar faxmlay olmaydigan go'zallikni xamma yerda ko'ra olish, faximlash, sezish, xis qilish qobiliyatiga egadir.

Ulug‘vorlik - estetika tushunchalaridan biri. Hajm va salmoq bilan bog‘liq bo‘lgan narsa hodisalarning bir qarashda ilg‘ab olinmaydigan botiniy jihatlari, ulkan qudrat va miqyosga ega voqelikning estetik ko‘rinishini anglatadi. Ulug‘vorlik kundalik hayotda istisnoli voqelik sifatida namoyon bo‘lib, odatiy voqea-hodisalardan o‘zining favquloddaligi bilan ajralib turadi.

**Fojealilik
va kulgililik estetik tushunchalari
yordamida hayot ziddiyatlari va
to'qnashuvlari baholanadi va mushoxada
qilinadi. Ular orqali insonning ijtimoiy
hayot hodisalariga nisbatan estetik
munosabati ifodalanadi va
mustahkamlanadi. Aytish joizki,
fojealilik va kulgililik go'zallik
tushunchasidan torroq doirada
amal qiladi.**

Estetikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqadorligi



Mutafakkirlar ijodida nafosat olamiga bo'lgan munosabat

Suqrot

- Go'zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko'chirilgan bo'lib, go'zallik va ezgulik birligi estetika va axloq birligidir

Aflotun

- Nafosat manbaini avvalo g'oyalar tashkil etadi. His-tuyg'u beradigan barcha narsalarni abadiy, o'zgarmas g'oya «yoritib turgan»dagina go'zallik kashf etiladi

Arastu

- Nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi va ana shu narsalarning tartiblilik, muvofiqlilik, uyg'unlik, yaxlitlikda namoyon bo'ladi

Demokrit

- Go'zallikni har tomonlar mosligi (simmetriya)da deb bildi va uni meyor tushunchasi bilan bog'ladi.

ESTETIK TUSHUNCHALAR MAZMUNI

Estetik ong ma'naviy ruxiy voqea xodisalar majmui bo'lib ijtimoiy xayot zaminida vujudga keladigan estetik xis-tuygu estetik did estetik orzu estetik qarash va nazariyalar tizimidan iborat.

**ESTETIK
ONG**

Estetik his tuyg'u bizni o'rab turgan voqeani estetik jihatdan his etish qobiliyatidir. Uning go'zalligini uyg'unligini sezishdir.

**ESTETIK
HIS
TUYG'U**

Estetik did - olamni guzalligini tezda anglashdir. Estetik did zamirida estetik his tuyg'u yotadi. Estetik did voqea hodisalarning estetik sifitlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholash jarayonidir.

**ESTETIK
DID**

Har bir davrning o'z estetik orzuga ega bo'lgan insonlari bo'ladi. Estetik orzu bu insonning go'zallik haqidagi tasavvurlarining eng yuksak ifodasidir.

**ESTETIK
ORZU**

Estetik ong tushunchasi

Estetik ong ma'naviy-ruhiy voqea-xodisalar majmui bo'lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik fikr, estetik his, estetik did, estetik orzu, estetik qarash, estetik nazariya tizimini yaratadi.

Estetik ong ijtimoiy hayot zaminida uning bilan mutanosib tarzda o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi. Estetik ong jamiyat xayotida guruhiiy manfaatlar ifodasi tarzida ham namoyon bo'ladi.

Estetik ong ijtimoiy hayot in'ikosi, u jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, jamiyat hayotiga har tomonlama ta'sir o'tkazadi. Estetik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida estetik faoliyat bilan uzviy bog'liq, u estetik faoliyat jarayonida shakllanadi. Estetik ong estetik faoliyat maxsulidir.

ESTETIK HIS-TUYG'U

“Inson – butun bir olam, faqat undagi asosiy tuyg’u – olijanoblik bo’lsa bas”.

F.M.DOSTOYEVSKIY

Kaykovus “Qobusnoma” asarida: “Bilgilkim, hamma hunardan so’z hunari yaxshi, chunki boshqa jonivorlardan odam o’n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir: beshi odam tanasining tashqi tomonida zohir bo’ladi va beshi ichida yashiringandir”.

ESTETIK DID

Estetik did - go'zallik yoki xunuklik to'g'risida hukm chiqarish qobiliyatimizdir. U bir o'rinda estetik baholash hamdir, masalan, biron tomoshadan so'ng kishilar yoqdi, maroqli, zerikarli, deb hukm chiqaradilar. Bu hukm didning sof bahosi hisoblanadi.

1. Bir narsani yod qilmoq.
2. Hamisha esda saqlamoq
3. Xayol qilish
4. Farq qila bilish
5. Nutq

Beshtasi odam tanasining sezgi a'zolari bilan bog'liq:

1. Eshitish
2. Ko'rish
3. Hid bilish
4. Ta'm bilish
5. Sezish

Bedilning fikricha, insonda uch xil kuch bor:

1. Jismoniy kuch.
2. Aqliy kuch.
3. Ruhiy kuch.

Abu Rayhon Beruniy his-tuyg'u a'zolari haqida quyidagicha ta'rif keltiradi: "Ularni pancha modali, ya'ni besh ona deb ataydilar va sezish orqali bilinadigan beshta narsalar".

Bular:

1. Sodda unsur bo'lgan osmon – shabada, ya'ni eshilib bilinadigan.
2. Shamol – sparma, ya'ni tegib bilinadigan.
3. Olov – ro'pa, ya'ni ko'rib bilinadigan.
4. Suv – rasa, ya'ni tatilib bilinadigan.
5. Tuproq – gandha, ya'ni hidlanib bilinadigan narsalardir.

- ***E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!!!***